

GLOBALLASHUV VA NOQONUNIY MOLIYAVIY OQIMLAR:

IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLIL

Sirojiddinov Elyor Turg'unpulat o'g'li

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22766072>

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari bilan noqonuniy moliyaviy oqimlarning kengayishi o'rtasidagi strukturaviy bog'liqlik ijtimoiy-falsafiy metodologiya doirasida tadqiq etiladi. Muallif noqonuniy moliyaviy oqimlarni global iqtisodiy tizimning tasodifiy nuqsoni yoki alohida shaxslarning axloqiy zaifligi hosilasi sifatida emas, balki kapital harakatining deterritorializatsiyasi bilan huquqiy tartibga solishning territorial tabiati o'rtasidagi tizimli asimmetriyaning qonuniy natijasi sifatida talqin qiladi. Tadqiqotda ushbu oqimlarning ijtimoiy adolat tamoyilini yemirishi, davlat suvereniteti va fiskal salohiyatini zaiflashtirishi hamda institutlarga bo'lgan ijtimoiy ishonchni parchalashi asoslab beriladi. Shuningdek, global boshqaruv, moliyaviy shaffoflik va axloqiy mas'uliyat kategoriyalari negizida qarshi kurashning uch tayanchli falsafiy modeli taklif etiladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, noqonuniy moliyaviy oqimlarga qarshi samarali kurash faqat huquqiy-texnik chora-tadbirlar bilan emas, balki global iqtisodiy tartibning normativ asoslarini qayta ko'rib chiqish orqali mumkin.

Kalit so'zlar: globallashuv, noqonuniy moliyaviy oqimlar, jinoiy daromadlarni legallashtirish, offshor yurisdiksiyalar, soliqdan bo'yin tovlash, moliyaviy shaffoflik, ijtimoiy adolat, iqtisodiy suverenitet, korrupsiya, transmilliy jinoyatchilik, global boshqaruv, institutsional ishonch, axloqiy mas'uliyat, tengsizlik, ijtimoiy-falsafiy tahlil.

Abstract: This article examines the structural relationship between globalization processes and the expansion of illicit financial flows within the

framework of socio-philosophical methodology. The author interprets illicit financial flows not as an accidental defect of the global economic system or as a product of the moral weakness of individuals, but as a logical consequence of the systemic asymmetry between the deterritorialization of capital flows and the territorial nature of legal regulation. The study substantiates that such flows undermine the principle of social justice, weaken state sovereignty and fiscal capacity, and erode public trust in institutions. Furthermore, based on the categories of global governance, financial transparency, and moral responsibility, a three-pillar philosophical model for combating illicit financial flows is proposed. The results of the analysis demonstrate that an effective response to illicit financial flows requires not only legal and technical measures, but also a reconsideration of the normative foundations of the global economic order.

Keywords: globalization, illicit financial flows, money laundering, offshore jurisdictions, tax evasion, financial transparency, social justice, economic sovereignty, corruption, transnational crime, global governance, institutional trust, moral responsibility, inequality, socio-philosophical analysis.

Аннотация: В данной статье в рамках социально-философской методологии исследуется структурная взаимосвязь между процессами глобализации и расширением незаконных финансовых потоков. Автор рассматривает незаконные финансовые потоки не как случайный дефект глобальной экономической системы или результат моральной слабости отдельных лиц, а как закономерное следствие системной асимметрии между детерриториализацией движения капитала и территориальной природой правового регулирования. В исследовании обосновывается, что данные потоки подрывают принцип социальной справедливости, ослабляют государственный суверенитет и фискальный потенциал, а также разрушают общественное доверие к институтам. Кроме того, на основе категорий глобального управления, финансовой прозрачности и моральной

ответственности предлагается трёхпорная философская модель противодействия незаконным финансовым потокам. Результаты анализа показывают, что эффективная борьба с незаконными финансовыми потоками возможна не только посредством правовых и технических мер, но и через пересмотр нормативных основ глобального экономического порядка.

Ключевые слова: глобализация, незаконные финансовые потоки, легализация преступных доходов, офшорные юрисдикции, уклонение от уплаты налогов, финансовая прозрачность, социальная справедливость, экономический суверенитет, коррупция, транснациональная преступность, глобальное управление, институциональное доверие, моральная ответственность, неравенство, социально-философский анализ.

KIRISH

Globallashuv soʻnggi yarim asrdagi eng qamrovli ijtimoiy jarayonlardan biri boʻlib, uning mohiyati savdo hajmining oʻsishi yoki kommunikatsiya tezligining ortishi bilan tugamaydi. U ijtimoiy makon va vaqtning qayta tashkil etilishini, milliy jamiyatlarning oʻzaro bogʻliqlik darajasi sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarilishini anglatadi. E. Giddens taʼbiri bilan aytganda, globallashuv — bu uzoqdagi hodisalar mahalliy voqelikni shakllantiradigan, mahalliy harakatlar esa uzoq oqibatlariga ega boʻladigan ijtimoiy munosabatlarning kuchayishidir. Ushbu jarayonning eng jadal va eng kam boshqariladigan sohasi — moliya bozorlari boʻlib chiqdi. Kapital bugungi kunda geografik toʻsiqlarni deyarli his qilmaydi, uning harakati esa milliy nazorat mexanizmlarining imkoniyatlaridan ancha tezdir. Aynan shu nomutanosiblikda tadqiqot muammosining ildizi yotadi. Huquqiy tartibga solish oʻz tabiatiga koʻra territorial: qonun aniq belgilangan hudud doirasida amal qiladi, sud yurisdiksiyasi chegara bilan cheklangan, soliq tizimi milliy iqtisodiyotga bogʻlangan. Kapital esa deterritorializatsiyalashgan: u bir kun ichida oʻnlab yurisdiksiyadan oʻtishi, huquqiy shaklini oʻzgartirishi va haqiqiy egasini yashirishi mumkin. Z. Bauman mazkur holatni «ekstraterritorial elita» va «mahalliyashtirilgan

ko'pchilik» o'rtasidagi tafovut sifatida tavsiflaydi: birinchisi makondan ozod, ikkinchisi esa unga mahkumdur. Noqonuniy moliyaviy oqimlar ushbu tizimli asimmetriyaning bevosita hosilasi bo'lib, ular tasodifiy buzilish emas, balki mavjud arxitekturaning strukturaviy imkoniyatidan foydalanishdir. «Noqonuniy moliyaviy oqimlar» kategoriyasi ilmiy adabiyotda kelib chiqishi, ko'chirilishi yoki ishlatilishi qonunga zid bo'lgan kapital harakati sifatida ta'riflanadi. R. Beyker ushbu oqimlarning uchta asosiy manbaini ajratadi: jinoiy faoliyat daromadlari, korrupsiya natijasida o'zlashtirilgan mablag'lar va tijorat operatsiyalarida soliqdan bo'yin tovlash. Uchinchi komponent hajm jihatidan eng yirigi bo'lishiga qaramay, jamoatchilik ongida eng kam ko'rinuvchan bo'lib qoladi, chunki u ko'pincha qonunning harfiga rasman rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Bu esa falsafiy jihatdan muhim masalani — qonuniylik va adolat o'rtasidagi tafovut masalasini keltirib chiqaradi. Transfer narxlarini manipulyatsiya qilish yoki agressiv soliq rejalashtirish rasman jinoyat bo'lmasligi mumkin, biroq ularning ijtimoiy oqibati o'g'irlikdan farq qilmaydi. Muammoning ijtimoiy-axloqiy o'lchovi taqsimlash adolati kategoriyasi orqali ochiladi. J. Rolzning adolat nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar faqat eng kam imtiyozli a'zolarining manfaatiga xizmat qilgan taqdirdagina oqlanishi mumkin. Noqonuniy moliyaviy oqimlar ushbu tamoyilni tubdan buzadi: ular jamoaviy resurslarni jamiyatdan chiqarib, ularni allaqachon imtiyozli bo'lgan guruhlar ixtiyorida to'playdi. G. Zukman hisob-kitoblariga ko'ra, global moliyaviy boylikning sezilarli qismi offshor yurisdiksiyalarda saqlanadi va milliy soliq bazasidan tashqarida qoladi. Natijada soliq yuki mobilligi past bo'lgan sub'ektlar — mehnat daromadi oluvchilar va kichik biznes zimmasiga siljiydi. Bu esa fiskal adolatning teskari taqsimlanishini keltirib chiqaradi. Ikkinchi oqibat davlat suvereniteti va salohiyatining zaiflashuvidir. Soliq bazasining yemirilishi davlatning ta'lim, sog'liqni saqlash va infratuzilmani moliyalashtirish qobiliyatini pasaytiradi. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu jiddiy muammo: ularning byudjet daromadlari tarkibida tabiiy resurslar va

tijorat operatsiyalaridan tushadigan soliqlar ulushi yuqori bo'lib, aynan shu sohalar noqonuniy oqimlarga eng ko'p duchor bo'ladi. J. Stiglits globallashtirishning tanqidiy tahlilida xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan targ'ib etilgan liberallashtirish siyosati ko'pincha mahalliy kontekstni hisobga olmaganini va nazorat mexanizmlari yaratilmasdan oldin kapital harakati erkinlashtirilganini ko'rsatadi. Uchinchi oqibat — ijtimoiy ishonchning yemirilishi. Fuqarolar elitaning umumiy qoidalaridan tashqarida ekanligini kuzatganda, qonunga bo'ysunishning axloqiy asosi zaiflashadi. Bu yerda o'ziga xos «normativ zanjir reaksiyasi» yuzaga keladi: yuqori darajadagi qoidabuzarlik quyi darajadagi qoidabuzarlikni oqlovchi argumentga aylanadi. E. Dyurkgeym ta'riflagan anomiya holati — normalarning tartibga soluvchi kuchini yo'qotishi — aynan shunday sharoitda shakllanadi. Jamiyat rasman qonunlarga ega bo'ladi, biroq ular ijtimoiy xulq-atvorni haqiqatda boshqarmay qo'yadi. Muammoning yana bir qatlami offshor yurisdiksiyalarning institutsional roli bilan bog'liq. N. Shakson ularni jahon iqtisodiyotining chekka anomaliyasi emas, balki markaziy infratuzilma elementi sifatida tavsiflaydi. Maxfiylik rejimi, past soliq stavkalari va benefitsiar egalik haqidagi ma'lumotlarning yopiqligi ushbu yurisdiksiyalarni kapitalning huquqiy javobgarlikdan qochish maydoniga aylantiradi. R. Neylor esa qora bozor va noqonuniy moliyaning legal iqtisodiyot bilan chuqur o'zaro bog'liqligini ko'rsatib, ular o'rtasida aniq chegara o'tkazish qiyinligini asoslaydi. Falsafiy nuqtai nazardan bu muhim xulosa: noqonuniy moliyaviy oqimlar tizimga tashqaridan kirib kelmaydi, ular tizimning ichki mantiqidan o'sib chiqadi. Muammoning metodologik murakkabligi alohida e'tiborga loyiq. Noqonuniy moliyaviy oqimlar o'z tabiatiga ko'ra yashirin hodisa bo'lgani bois, ularning haqiqiy hajmini bevosita o'lchash imkonsizdir. Tadqiqotchilar bilvosita usullarga — savdo statistikasidagi nomutanosibliklarni tahlil qilish, to'lov balansi anomaliyalarini aniqlash va makroiqtisodiy modellashtirish usullariga murojaat qilishga majbur bo'ladilar. Turli metodikalar esa bir-biridan sezilarli farq qiluvchi baholarni beradi. Bu holat gnoseologik jihatdan

muhim savol tugʻdiradi: ijtimoiy siyosat aniq oʻlchanmaydigan hodisaga nisbatan qanday asoslangan boʻlishi mumkin? Javob ehtimoliy bilim asosida qaror qabul qilish tamoyilida yotadi — oqimlarning aniq hajmini bilmasdan ham, ularni yuzaga keltiruvchi strukturaviy sharoitlarni aniqlash va shu sharoitlarni oʻzgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin. Bu esa tadqiqot diqqatini miqdoriy baholashdan institutsional tahlilga koʻchirishni taqozo etadi. Moliyaning raqamlashuvi muammoning yangi qatlamini ochadi. Kriptoaktivlar, markazlashmagan moliya platformalari va anonim toʻlov vositalarining paydo boʻlishi kapital harakatini yanada tezlashtirdi va uni anʼanaviy bank vositachiligidan qisman ozod qildi. Bir tomondan, blokcheyn texnologiyasining tranzaksiyalarni oʻzgarms tarzda qayd etish xususiyati shaffoflik uchun yangi imkoniyat yaratadi. Ikkinchi tomondan, shaxsni identifikatsiya qilish mexanizmining zaifligi va yurisdiksiyaviy mansublikning noaniqligi nazoratni murakkablashtiradi. Falsafiy jihatdan bu texnologiyaning axloqiy neytralligi haqidagi klassik masalani qayta koʻtaradi: bir xil texnik yechim ham shaffoflik, ham maxfiylik maqsadida ishlatilishi mumkin. Belgilovchi omil texnologiyaning oʻzida emas, balki uni tartibga soluvchi institutsional va normativ ramkada yotadi. Oʻzbekiston uchun masalaning dolzarbligi iqtisodiyotni liberallashtirish va xalqaro moliyaviy tizimga integratsiyalashuv jarayonlari bilan belgilanadi. Valyuta bozorining erkinlashtirilishi, xorijiy investitsiyalarning oʻsishi va tashqi savdo hajmining kengayishi iqtisodiy oʻsish uchun imkoniyat yaratish bilan birga, noqonuniy oqimlar uchun yangi kanallar ham ochadi. Shu bois jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash tizimini mustahkamlash, benefitsiar egalik shaffofligini taʼminlash va moliyaviy monitoring mexanizmlarini rivojlantirish milliy iqtisodiy xavfsizlikning ustuvor yoʻnalishiga aylanmoqda. Biroq institutsional chora-tadbirlar jamiyatda soliq va huquqiy madaniyat yuksalmasa, toʻliq samara bermaydi. Maqolaning maqsadi globallashtirish va noqonuniy moliyaviy oqimlar oʻrtasidagi strukturaviy bogʻliqlikni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ochib berish, ushbu oqimlarning

adolat, suverenitet va ishonch kategoriyalariga ta'sirini tahlil qilish hamda qarshi kurashning normativ asoslarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot tizimli yondashuv, tanqidiy ijtimoiy nazariya va qiyosiy-falsafiy metodga tayanadi. Ilmiy yangilik noqonuniy moliyaviy oqimlarni global tartibning strukturaviy asimmetriyasi hosilasi sifatida asoslash va qarshi kurashning uch tayanchli modelini taklif etishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: globallashuvning strukturaviy asimmetriyasi tabiatini aniqlash; noqonuniy oqimlarning genezisini institutsional tahlil doirasida ochib berish; ularning adolat, suverenitet va ishonch kategoriyalariga ta'sirini baholash; qarshi kurash modelining normativ asoslarini ishlab chiqish hamda milliy sharoitda ta'lim va huquqiy madaniyatning ustuvor rolini ko'rsatish.

Noqonuniy moliyaviy oqimlarning kengayishini tushuntirishda ikki yondashuv raqobatlashadi. Individualistik yondashuv sabablarni alohida aktorlarning axloqiy tanlovida ko'radi va yechimni jazo choralarini kuchaytirishda topadi. Strukturaviy yondashuv esa sababni tizim arxitekturasida — kapital mobilligi bilan huquqiy nazorat territorialligi o'rtasidagi tafovutda ko'radi. Empirik dalillar ikkinchi yondashuv foydasiga guvohlik beradi: oqimlar hajmi alohida shaxslarning axloqiy sifatidan ko'ra institutsional shaffoflik darajasi bilan ko'proq korrelyatsiyalanadi. U. Bek globallashuv tahlilida «metohokimiyat» tushunchasini kiritadi — transmilliy kapitalning davlatlar o'rtasida raqobat yaratish orqali o'z shartlarini diktat qilish qobiliyati. Yurisdiksiyalar investitsiya jalb qilish uchun soliq stavkalarini pasaytirishga va nazoratni yumshatishga majbur bo'ladilar. Bu jarayon «quyiga qarab poyga» deb nomlanuvchi mexanizmni ishga tushiradi, unda har bir davlatning ratsional tanlovi jamoaviy irratsional natijaga olib keladi. Birinchi oqibat — taqsimlash adolatining buzilishi. Jamoaviy resurslar jamiyat nazoratidan chiqarilib, ularning yuki kam himoyalangan guruhlar zimmasiga o'tadi. T. Piketti ko'rsatganidek, kapital daromadlarining mehnat daromadlaridan tezroq o'sishi tengsizlikni kuchaytiradi; moliyaviy maxfiylik rejimi esa bu jarayonni tezlashtiradi

va uni statistik kuzatuvdan yashiradi. Ikkinchi oqibat — demokratik nazoratning zaiflashuvi. Resurslar oqimi jamoatchilik kuzatuvidan chiqqanda, fuqarolarning byudjet siyosatiga ta'sir qilish imkoniyati toraymaydi, balki mazmunini yo'qotadi: ovoz berish mumkin bo'lgan narsa — allaqachon jamiyatdan chiqarilgan resursning qoldig'i. Uchinchi oqibat — axloqiy normalarning devalvatsiyasi. Qoidabuzarlikning jazosiz qolishi qonunga bo'ysunishni ratsional emas, soddalik belgisi sifatida ko'rsatadi. Bu esa jamiyatda huquqiy nigilizmning tarqalishiga zamin yaratadi.

Birinchi tayanch — global boshqaruv: milliy chora-tadbirlar deterritorializatsiyalashgan muammoni hal qila olmaydi, shu bois soliq ma'lumotlari bilan avtomatik almashinuv, benefitsiar egalik reyestrlari va yurisdiksiyalararo muvofiqlashtirish zarur. Ikkinchi tayanch — shaffoflik: maxfiylik moliyaviy jinoyatning asosiy resursi bo'lgani bois, uni cheklash himoya choralarining eng samaralisidir. Uchinchi tayanch — axloqiy mas'uliyat: qonunning harfiga rasman rioya qilish yetarli mezon emas, iqtisodiy sub'ekt o'z faoliyatining jamoaviy oqibatlari uchun javobgarlikni tan olishi lozim. Mazkur tayanchlar bir-birini taqozo etadi: shaffoflik mexanizmsiz global boshqaruv deklarativ, axloqiy mas'uliyatsiz shaffoflik esa chetlab o'tiladigan formal talab bo'lib qoladi. Ularning barchasi esa jamiyatda soliq va huquqiy madaniyatni yuksaltiruvchi uzluksiz ta'lim tizimiga tayanadi.

XULOSA

O'tkazilgan ijtimoiy-falsafiy tahlil noqonuniy moliyaviy oqimlar globallashuvning tasodifiy nuqsoni emas, balki uning strukturaviy asimmetriyasidan kelib chiqadigan qonuniy natija ekanligini ko'rsatdi. Birinchidan, kapitalning deterritorializatsiyasi bilan huquqiy tartibga solishning territorial tabiati o'rtasidagi tafovut ushbu oqimlar uchun asosiy imkoniyat maydonini yaratadi. Ikkinchidan, muammoning axloqiy o'tkirligi qonuniylik va adolat o'rtasidagi tafovutda namoyon bo'ladi: oqimlarning katta qismi rasman qonunni buzmasdan amalga oshiriladi,

biroq ijtimoiy oqibati bo'yicha jamoaviy resursning o'zlashtirilishidan farq qilmaydi. Uchinchi, noqonuniy oqimlar uch yo'nalishda vayron qiluvchi ta'sir ko'rsatadi: taqsimlash adolatini buzadi, davlatning fiskal va ijtimoiy salohiyatini zaiflashtiradi hamda institutlarga bo'lgan ishonchni yemirib, anomiya holatini kuchaytiradi. To'rtinchi, taklif etilgan uch tayanchli model — global boshqaruv, moliyaviy shaffoflik va axloqiy mas'uliyat — muammoni tizimli hal etishning konseptual asosini beradi. Ushbu tayanchlar o'zaro almashinuvchi emas, balki bir-birini taqozo etuvchi elementlardir. Beshinchi, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va moliyaviy monitoring tizimini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar qulay institutsional asos yaratmoqda. Ularning to'liq samarasi esa jamiyatda soliq madaniyati, huquqiy ong va axloqiy mas'uliyatning qaror topishiga bog'liq. Jamiyat o'z resurslarining harakatini qanchalik ko'ra olsa, u shunchalik adolatli va barqaror bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashbaev S. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish // Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. — 2025. — Т. 1, № 1. — С. 314—316.
2. Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. — New York: Columbia University Press, 1998. — 136 p.
3. Baker R.W. Capitalism's Achilles Heel: Dirty Money and How to Renew the Free-Market System. — Hoboken, NJ: John Wiley & Sons, 2005. — 438 p.
4. Ergashbayev S. Uzluksiz ta'lim tashkil etish orqali yoshlarning ma'naviy-falsafiy dunyoqarashini yuksaltirish // Bulletin of Contemporary Researches: Multidisciplinary. — 2025. — Vol. 1, № 1. — P. 10—13.
5. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents. — New York: W.W. Norton & Company, 2002. — 282 p.



6. Zucman G. The Hidden Wealth of Nations: The Scourge of Tax Havens / transl. by T.L. Fagan. — Chicago: University of Chicago Press, 2015. — 200 p.
7. Mirzaolimjon og‘li M.M., Shohbozbek E. Yangi O‘zbekistonning ta’lim siyosati va universitetlarning yangi modellari // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. — 2025. — Vol. 16, № 01. — B. 325—328.
8. Beck U. What Is Globalization? / transl. by P. Camiller. — Cambridge: Polity Press, 2000. — 180 p.
9. Naylor R.T. Wages of Crime: Black Markets, Illegal Finance, and the Underworld Economy. — Ithaca, NY: Cornell University Press, 2002. — 355 p.
10. Shaxson N. Treasure Islands: Tax Havens and the Men Who Stole the World. — London: The Bodley Head, 2011. — 329 p.